

## QORIN TIFI VA PARATIF QO'ZG'ATUVCHILARI

*Sharifov Ruslan Bobomurod o'g'li*

*sharifovruslan86@gmail.com*

*Abdullayeva Laylo Sayfulla qizi*

*r25332701@gmail.com*

*Rahimova Madina Sobir qizi*

*i45786883@gmail.com*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*

*davolash fakulteti talabalari*

**Annotatsiya:** Qorin tifi qo'zg'atuvchisi-grammanfiy *Salmonella enterica*, *Salmonella avlodi*, *Enterobacteriaceae* oilasiga mansub Typhi serotype. Kasallik bemor odamlar va bakteriya tashuvchilaridan yuqadi. Kasallik boshlanishi bilan bemor tashqariga axlat, siydig'i, so'lagi bilan tif bakteriyalarini tashqariga chiqaradi. Qorin tifini davoshda antibiotiklardan foydalaniadi. Kasallik bemorning ingichka ichakning quyi qismi devoridagi limfa tugunlarining o'ziga xos zararlanishi, yuqori harorat va umumiyligi intoksikatsiya, gepatomegaliya, yuqori isitma va qorin og'rig'i holarlari kuzatiladi. Ikki xil – serologik va bakteriologik tekshiruv usulidan foydalaniadi.

**Kalit so'zlar:** Qorin tifi, grammanfiy, bakteriya, antibiotiklar, isitma, antropoz, rozeoloz, xloramin, seftraksion, tayoqchasimon bakteriya, salmonella, klassifikatsiya, gepatomegaliya, serologik tekshiruv usuli, uronokultura, pH.

Qorin tifi—yuqumli kasallik bo'lib, o'tkir siklik kechadi, ich terlama kasalligi deb ham ataladi. Qorin tifini salmonellalar avlodiga mansub tif bakteriyalari-*Salmonella typhi* tomonidan qo'zg'atadi, faqat odamlarda uchraydi, ya'niki, antropoz infeksiyadir. Kasallik alimentar holatda yuqadi, bemorning ingichka ichakning quyi qismi devoridagi limfa tugunlarining o'ziga xos zararlanishi, yuqori harorat va umumiyligi intoksikatsiya, bakterimiya, gepatomegaliya, yuqori isitma va qorin og'rig'i holarlari kuzatiladi. Yuqori isitmalash natijasida bemor alahlaydi, es-hushinini yo'qotib qo'yadigan holatga-tifozga tushadi, XX asrning boshlarigacha bemor tifozga tushgani uchun “tif” deb atalgan. Terida pushti ragli-rozeoloz toshmalar toshadi.

**Etiologiyasi:** Qorin tifi qo'zg'atuvchisi-grammanfiy *Salmonella enterica*, *Salmonella avlodi*, *Enterobacteriaceae* oilasiga mansub Typhi serotype(*S.Typhi* eski klassifikatsiya bo'yicha). Bakteriya harakatchan, oxirlari dumaloq, spora va kapsula hosil qilmaydi, shaklan tayoqchaga o'xshaydi, bo'yisi 0.5-0.3 mm, xivchinlari bor haratlana oladi 8-10 tagacha uchraydi. Tif bakteriyalari anaeroblar bo'lib, Ph 6.8-7.2 harorat 37°C bo'lgan oddiy oziq muhitida ko'payadi. Tashqi muhitga toksinlar ishlab

chiqarmaydi, faqatgina nobud bo'lgandan keyin odamlar uchun patogen bo'lган endotoksinlar ishlab chiqaradi. Tif salmonellalari qonda ko'payadi va qondagi bakteriotsitlar tasirida parchalanib qonga juda ko'p miqdorda endotoksinlar tushadi, toksinlar esa bemorni zararlaydi. Bu kasallikning ikkinchi haftasida sidir bo'lib, yura va MNT faoliayti buziladi, harorat ko'tariladi. Tashqi muhitning issiq tasiriga chidamli somatik O-antigeni, xivchinlilarga mansub, issiqliq chidamsiz N – antigeni va somatik Vi – antigeni bor bo'ladi. Ich terlama bakteriyalari tashqi muhitda ancha barqaror: toza suv omborlarida ular bir oygacha, sabzavot va mevalarda 10 kungacha saqlanishi, sut mahsulotlarida esa ko'payishi va to'planishi ham mumkin. Xloraminning 3% eritmasi, karbol kislotasining 5% eritmasi, simobli xlorid (1: 1000), 96% etil spiriti ta'sirida ular bir necha daqiqadan so'ng nobud bo'lishadi. Ushbu bakteriya haqida bиринчи qaydнома Syurixda 1880-yilda Ebert tomonidan nashr etilgan ma'ruzada keltirilgan. Ebert bilan bir vaqtida Kox, Klebs va Meyer ham bakteriyani o'rGANISH bilan mashg'ul bo'lishgan. 1884-yilda qo'zg'atuvchi toza shaklda Gaffka tomonidan ajratib olingan va shuning uchun unga «Ebert-Gaffka qorin tifi tayoqchasi» nomi berilgan. Qorin tifi bakteriyasi va parazitlar o'zaro biokimyoviy va antigen xarakterlari bo'yicha farqlanadi.

**Epidemiologiyasi:** Kasallik bemor odamlar va bakteriya tashuvchilaridan yuqadi. Kasallik boshlanishi bilan bemor tashqariga axlat, siyidigi, so`lagi bilan tif bakteriyalarini tashqariga chiqaradi. Infeksiya najas bilan ifloslangan oziq-ovqat yoki suvni ite'mol qilish yo'li bilan yuqadi. Suv havzalari, suv omborlari va bemorlar infeksiyaning manbaidir. Bemor sog'aygach esa bakteriyalar chiqarilishi to'xtaydi. Ba'zan bemor sog'aygach ham bakteriyalar chiqish to'xtamasligi mumkin. Bunday shaxslarni bakteriya tashib yuruvchilar deyiladi. Bakteriya tashuvchilik 3 oygacha davom etsa «O'kir bakteriya tashuvchilik», undan uzoqqa ba'zan esa umrbod cho'zilsa «surunkali bakteriya tashuvchilik» deb yuritiladi. Umrbod bakteriya tashuvchilik 2-4% sog'ayganlarda uchrashi mumkin. Ularni «rekonvalestsent bakteriya tashuvchilar» deyiladi. O'tkir bakteriya tashuvchilik holati esa qorin tifini yuqtirgan, lekin o`zi kasallanmay qolgan kishilar orasida uchraydi, ular «sog'lom bakteriya tashuvchilar» deb ham yuritiladi. Tif tayoqchalarini bemorning najasi va siydigidadan toppish mumkin. Bakteriyalar organizmga oshqozon-ichak trakti orqali kiradi va limfa yo'li orqali qon oqimiga kiradi. Og'ir holatlarda ichakdan qon ketishi, oshqozon yarasi va teshik paydo bo'lishi mumkin. Qorin tifi kontakt yo'li bilan- qo'l berib ko'rishish, bemor parvarishidan, bemor foydalangan buyumlaridan yuqishi mumkin. Sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilmaydigan aholi hududlari orasida ko'p uchraydi. Kattalarda jinsiy aloqa orqali bolalarda esa o'zaro o'ynashi orqali tasodifan yuqushi mumkin. Qorin tifini aniqlashda mikrobiologik diagnostikasi bakteriologik va mikrobiologik tekshiruvlar asosida olib biriladi. Daslabki tekshiruvda bakterioskopik tekshiruv amalga oshirilmaydi. Najas tarkibida ichak tayoqchasilari ham bo'ladi, ular

tayoqchasimon shaklda bo'lgani uchun ularni ajratib bo'lmaydi. Boshqa surtmalardan foydalanganimizda masalan qon, o't-safroda tif bakteriyalari kam uchraydi deyarli topib bo'lmaydi. Kasallikni birinchi davrida qzo'zg'atuvchilar qondan ajratib olinadi bunga gemokultura plish deyiladi. Ikkinchichaftasidan boshlab najasdan-kaprokultura, jigar o'tidan yoki siydikdan-urpnokultura ajratib olinadi. Tif infeksiya patogenezida 7 ta davr tafovut qilinadi:

- 1) Organizmga tushish davri.
- 2) Invaziya davri.
- 3) Mikrobning ingichka ichakdagi limfa sistemasidan qonga o'tishi.
- 4) Qondan taloq, jigar, buyrak, ilikka tarqalishi.
- 5) Zaharlanish-intoksikatsiya davri.
- 6) Mikrobning tashqariga chiqarilishi va allergic davri.
- 7) Sog'ayish davri(agar organism pathogen omillarni yengsa)

Qorin tifini davoshda antibiotiklardan foydalaniлади. Levometsetin, seftraksion, **xloramfenikol, sulfametoksazol, biseptol va boshqalardan foydalaniлади.** Og'ir, murakkab va birlashgan shakllarni davolashda amitsitsillin kombinatsiyasidan foydalinish samarali natija beradi. Yengil holatlarda detoksikatsiya toksinni parchalash, yo'qotish uchun ko'p miqdorda suyuqlik ichish, ovqatdan 2 soat o'tgach enterosorbentlar qabul qilish, burun kateterlari orqali kislorod ingalatsiyasi tayinlanishi mumkin. Ich terlama va paratif bilan kasallangan barcha bemorlarga leykopoez va reparativ jarayonlar stimulyatorlari, angioprotektorlar buyuriladi. Bolalar uchun ftxinolonlarni foydalinish mumkin, ammo ehtiyyot bo'lish kerak. Kuchli zaharlanish holatlarida kortikosteroidlarnu antibiotiklarga qo'shilishi mumkin. Odam qorin tifi bilan og'rib o'tgach umrbod saqlanadigan immunitet qoladi

### Foyadalilanigan adabiyotlar;

- 1) Mikrobiologiya , virusologiya va immunologiya-2019 I.M.Muhammedov, Sh.R.Aliyev, J.A.Rizayev, Sh.A.Xo'jayeva.
- 2) Klinik mikrobiologiya-2016 I.M.Muhammedov
- 3) Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya-2015 I.M.Muhammedov, E.H.Eshboyev, M.M.Zokirov.
- 4) Mikrobiologiya-2005 I.Y.Gariyev
- 5) Mikrobiologiya-2005 V.T.Emsev.
- 6) Mikrobiologiya-2011 A.G'anixo'jayeva, H.Nazarov.
- 7) Internetdagi malumotlar.